

---

## JORIY YILDA TOSHLOQ TUMANIDA 50,7 KILOMETR ICHKI YO'LLARDA QURILISH-TA'MIRLASH ISHLARI BAJARILDI.

Keyingi yillarda Toshloq tumanida obodonchilik, bunyodkorlik ishlari bilan bir qatorda yo'llar qurish, mavjud yo'llarni ta'mirlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayni kunlarda aholiga qulaylik yaratish maqsadida tumandagi mahallalarda ichki yo'llarni asfaltlash ishlari olib borilmoqda. Tumanning eng olis qishloqlaridan biri bo'lgan Xo'jaariq MFYdagi Xorazm ko'chasida 3 km masofadagi ichki yo'llarda qurilish-ta'mirlash ishlari sifatli bajarilmoqda. Toshloq tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan yo'l qurilishi va ta'mirida ishlatiladigan zarur texnikalar jalg etilgan. Tez kunlarda yangi qurilgan yo'l Xorazm ko'chasida yashovchi aholi hamda ularning farzandlariga uzoq yillar xizmat ko'rsatadi.

Tumanda aholini qiynab kelayotgan muammolarni hal etish, mahallalarning qiyofasini tubdan o'zgartirish hamda aholiga qulayliklar yaratish maqsadida mahallalarda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Murojaatlarga asosan mahallalardagi tuproq yo'llariga tosh to'kilib, ta'mirlash ishlari amalga oshirilmoqda. Ko'chalarni ta'mirlashda maxsus texnikalar yordamida tekislash va presslash ishlari olib borilmoqda.

2022-10-28 18:06:04